



**TA'LIM MUASSASALARIDA KASBGA QIZIQTIRISH TUSHUNCHASINING
SHAKLLANISHIDA O'QITUVCHI SHAXSINING O'RNI**

Haydarova Bibijamol Qo'ldosheva
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. *Har bir o'smir o'zi tanlagan kasbni sevishi uning muvaffaqiyatli faoliyatini ta'minlovchi asosiy vositalardandir. O'smirlar o'z kasblarini tanlashlarida his-tuyg'ulariga tayanishlari lozim. Har bir o'smir o'zi qiziqqan va sevgan sohasi, uning xususiyatlarini to'liq bilavermaydi. O'smirlarning o'z sevgan kasblarining xususiyatlarini mukammal o'zlashtirishlarida pedagoglar, psixologlarning roli beqiyosdir.*

Kalit so'zlar: *kasbga yo'naltirish, kasb, o'qituvchi, yoshlar, pedagogik faoliyat, faollik, qobiliyat.*

**РОЛЬ ЛИЧНОСТИ ПЕДАГОГА В ФОРМИРОВАНИИ ПОНЯТИЯ
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ИНТЕРЕСА В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ
УЧРЕЖДЕНИЯХ**

Аннотация. *Любовь каждого подростка к выбранной им профессии-один из главных инструментов, обеспечивающих его успешную деятельность. Подростки должны полагаться на свои чувства при выборе профессии. Не каждый подросток до конца осознает сферу, которая ему интересна и любима, ее особенности. Неоценима роль педагогов, психологов в том, чтобы подростки в совершенстве овладевали особенностями своей любимой профессии.*

Ключевые слова: *профориентация, профессия, учитель, молодежь, педагогическая деятельность, активность, способности.*

Annotation. *The love of every teenager for his chosen profession is one of the main tools that ensure his successful activity. Teenagers should rely on their feelings when choosing a profession. Not every teenager is fully aware of the area that he is interested in and loves, its features. The role of teachers and psychologists is invaluable in ensuring that teenagers master the peculiarities of their favorite profession perfectly.*

Keywords: *career guidance, profession, teacher, youth, pedagogical activity, activity, abilities.*

Kirish. *Jamiyat taraqqiyotida yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularni o'zlari qiziqqan kasbga bo'lgan intilishlarini shakllantirish muhim va dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu yo'lda jamiyat, davlat bor kuchini berib yoshlarni foydali inson qilib shakllantirishga o'z e'tiborini beradi. Chunki yoshlarning kasb egallashlari va jamiyat taraqqiyoti o'zaro bog'liq jarayondir. Kasb va uni egallash o'ziga xos bo'lgan murakkab jarayondir. Yoshlar bu jarayonni boshlaridan o'tkazar ekanlar o'zlari uchun qaysi kasb qiziqarli va kerakli deb*



belgilab olishlari oson kechmaydi. Endigina bolalik davridan kattalar davriga o'sib o'tayotgan farzandlar berilgan tarbiyalariga qarab har xil bo'ladilar. Ulardagi mavjud bo'lgan ruhiy jarayonlar, berilgan tarbiya va bilimlar kasb tanlashda muhim hisoblanishi zarur. Ammo unday ham emas. Chunki ularni o'rab turgan ko'plab katta yoshli insonlar o'z ta'sirlari bilan turli maslahatlari bilan kasb tanlashlarida ikkilanishlarni vujudga keltiradilar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Kasb psixologiyasi o'z oldida turgan muhim kasb bilan bog'liq masalalarni o'rganishda va uni hal etishda o'qituvchi shaxsiga suyanadi. Shuning uchun ham kasb psixologiyasida o'qituvchining yoshlarni kasb tanlashlaridagi o'rni har doim uning diqqat markazida turadi. Kasb psixologiyasi o'z masalalarini o'rganishda o'qituvchi psixologiyasi, o'quvchi bilan o'qituvchi o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabat masalasi, o'qitish va kasbga yo'naltirish, kasbiy maslahatlar berish, ularni sinchiklab o'rganish orqali kasbni tanlashdagi psixologik jarayonlar kabi ko'plab masalalarni keng va chuqur o'rganib boradi. O'qituvchining kimligi va uning jamiyatda bajaradigan vazifasi haqida ko'plab fikrlar mavjud. Shulardan biri rus olimi V.Dalning o'z izohli lug'atidagi o'qituvchiga berilgan ta'rif hisoblanadi. Unda "o'qituvchi – bu tarbiyalovchi, o'qituvchi (dars beruvchi), ya'ni uning amaldagi ikki asosiy vazifasi ko'rsatib beriladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga ijtimoiy malakani o'zlashtirishlariga va uni tatbiq etishlariga rahbarlik qilishi, shuningdek, insoniyat yig'ib borgan bilimlarni yetkazib berishi ko'rsatib berilgan" [1:501]. Bu vazifalar insoniyat tarixining butun davrlarda asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

O'qituvchi kasbga yo'naltirar ekan o'z pedagogik faoliyatining subyekti sifatida va o'quvchilar bilan ishlovchi shaxs sifatida quyidagi psixologik talablarga javob berishi zarur: 1) bolalarga nisbatan mehrli bo'lish; 2) pedagogik faoliyatni sevish; 3) yetarli bilimlarga ega bo'lish; 4) keng eruditsiyaga ega bo'lish; 5) pedagogik intuitsiyaga ega bo'lish; 6) yuksak tafakkurga ega bo'lish; 7) yuksak darajadagi ahloqqa va madaniyatga ega bo'lish; 8) bolalarni tarbiyalashda va o'qitishda har xil ta'sirchan metodlarga ega bo'lish. Qo'shimcha talab sifatida quyidagilarni ham ko'rsatish mumkin: muloqotga kirishuvchanlik, artistlik mahorati, xushchaqchaqlik, yaxshi did va boshqa shu kabi xususiyatlarga ega bo'lish muhim hisoblanadi. Sanalgan xususiyatlarga ega bo'lgan o'qituvchi, albatta, ta'lim muassasasida yaratilgan shart-sharoitlar ham muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi shaxsi haqida gapirganda uning kasbiy yo'nalganligi muhim omillardan hisoblanib, o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda uning pedagogik faoliyati, shu faoliyat bilan band bo'lish qobiliyati, shuningdek, bu faoliyatga emotsional munosabatida ko'rinadi. Bolalarga o'z diqqatini qaratgan o'qituvchi har doim o'quvchilarni o'zicha qaytarilmasligini va ulardagi individual qobiliyatlarni rivojlantirish harakatida bo'ladi. O'qituvchining kasbga yo'naltirishda shaxs sifatida ko'zga tashlanadigan tomonlardan biri bu uning o'zligini anglaganligida ham ko'rinadi. O'qituvchini kasbiy o'z-o'zini anglaganligi uning o'qituvchilik faoliyatida belgilanadi. Shuni ta'kidlash kerakki o'z-o'zini anglash konsepsiyasi shakllanishi ko'p hollarda o'z-o'zidan (stixiyali) tarzda shakllanib boradi. Yetarli bo'lmagan metodik ta'minlanmaganligiga qaramay va pedagogik-psixologik





yo'nalishlarsiz o'qituvchi o'zining ichki subyektiv tomonlaridan kelib chiqqan holda o'z faoliyatidan qoniqishi yoki qoniqmasligi mumkin bo'ladi, o'zining kuchiga ishonish yoki ishonmaslik asosida o'z xatti-harakatlari tufayli o'qituvchida bir butun Men konsepsiyasi shakllanib boradi. Bu unda o'ziga ishonish yoki ishonmaslik, o'zidagi qobiliyatlik yoki qobiliyatsizlik kabilarni har xil muammoviy sharoitlarda sinash, shu sharoitlardan chiqib keta olishliklar asosida yuzaga chiqadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Dunyoda barqaror taraqqiyotni ta'lim samaradorligini ta'minlash, uning sifatini oshirishdagi muammolarni bartaraf etishda ilmiy jihatdan turli yondashuvlar, tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilar faolligini oshirish metodikasida ta'lim mohiyatini yangilashga qaratilgan harakatlar (dastur, darsliklar, o'quv qo'llanmalar), zamonaviy ilmiy va o'quv manbalarini (ta'lim rivojlangan davlatlar dasturlari va metodlari) joriy etish, bitiruvchilarni xalqaro mobilligini ta'minlash (Bolonya va boshqalar) kabi jarayon va qoidalarni keltirish mumkin. Xususan, ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ta'lim sohasida nazariy olgan bilimlarni amalda qo'llay olishi, ijodiy tafakkurning rivojlanganligi kabilarda amalga oshirilayotgan ishlarning natijalari ko'rinadi. Mamlakatni turli sohalarda taraqqiy ettirishning istiqbolli vazifalarini hisobga olish, ta'lim oluvchilarga dastlabki ta'lim vositalari va fanlarni, jumladan, ona tilini fanlararo integratsion o'qitish orqali o'quvchilar faolligini va tafakkurini rivojlantirish zaruratini taqozo qiladi. Bunday jarayonlarda o'qituvchi shaxsi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya mazmunini fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi asosida shakllantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirildi. "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdan iborat"[2]. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlatni barpo yetish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyoti ko'p jihatdan ta'lim tizimidagi islohotlarning samaradorligiga bog'liq. Bugungi kunda Mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasini rivojlantirish muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. O'zgarishlarning samarasini aniq va tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi o'qitash, nazariy bilimlar amaliyot bilan bog'lanishi, o'quv dasturlarida uzviylik, darsliklarning mazmuni va sifati davr bilan hamnafas bo'lganligi, amaldagi o'quv dasturlar o'quvchilarni ta'limning navbatdagi bosqichiga tayyorlash, erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirish masalasi e'tiborda ekanligi ko'rinmoqda. Ammo o'qituvchi shaxsi, uning kelajak avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati masalalarida tadqiqotlar amalga oshirish kun tartibidagi masalalardandir.

Ayni paytda jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rib, ularni ongli his etadigan, davrning global masalalari xususida mustaqil fikrlovchi ijtimoiy-ma'naviy faol avlod shakllanmoqda. Darhaqiqat, Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida "Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma'naviy sohalardagi mavqeini kuchaytirish – Yangi O'zbekiston barpo etishimizda juda dolzarb





masaladir. Harakatlar Strategiyasini biz bosqichma-bosqich amalga oshirmoqdamiz. Ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi yo'nalish-yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda biz avvalo ularni jismonan sog'lam, ruhan tetik, dunyo qarashi keng, zamonasiga mos, hamnafas fikrlaydigan, Vatanga sodiq tarbiyalash bilan birga demokratik islohotlarni olib bormoqdamiz"[3] - deb ta'kidlagan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ta'limdagi shaxsning faolligi muammosi pedagogika, psixologiya va o'quv amaliyotida eng dolzarb muammolardan biridir. Ta'lim maqsadlariga erishish, shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning kasbiy tayyorgarligining yetakchi omili sifatida ta'limdagi shaxsning faolligi muammosi ta'limning eng muhim elementlari (mazmuni, shakllari, usullari) va holatini tubdan tushunishni talab qiladi. Ta'limdagi shaxsning faolligi namoyon bo'lish darajasi uning asosiy mantig'i, shuningdek, nafaqat insonning kognitiv faolligi darajasini, balki uning shaxsiyatining o'ziga xosligini ham belgilaydigan ta'lim motivatsiyasining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Ana shunday ta'lim jarayonida tarbiyalangan o'quvchigina o'z kelajak kasbini ikkilanishlarsiz, adashmasdan tanlaydi. Bunda ta'lim beruvchining o'rni beqiyos, albatta. Zero, o'qituvchi o'quvchi uchun nafaqat ta'lim beruvchi, balki ibrat namunasi, hayotdagi idealga ham aylanishi kerak.

O'qituvchi faoliyatida darslarni konstruktivlash katta o'rin egallaydi. Chunki o'qituvchi darsni konstruktivlab, darsdan tashqari ishlarni olib borib, maktab dasturiga to'g'ri keladigan materiallarni, darsliklarni, har xil metodik qo'llanmalarni tanlab oladi. O'qitish jarayonini faollashtirish, mustahkamlash ham konstruktiv faoliyatga kiradi. Bundan tashqari o'qituvchilik shaxsi uning amaldagi vazifalari bilan ham bog'liq bo'lib, uni ko'plab olimlar sharhlab o'tganlar. Deylik, A.I.Sherbakov o'qituvchilik faoliyatini psixologik vazifalarini quyidagilarda ko'rsatib o'tadi. Bular axborot berish vazifasi – bu materiallarni yaxshi egallaganlik va uni yetkazib bera olishlikda ko'rinadi. Keyingi vazifa, rivojlantiruvchanlik vazifasi bo'lib – bu maktab o'quvchisini bir butun holda shaxs sifatida taraqqiyotini boshqarishdan iborat. Yana biri bu yo'naltirilganlik vazifasi – bu shaxsning yo'nalishlari, motivlari va g'oyalari bilan bog'liq. Uning yana bir vazifasi bu jalb qilishlilik vazifasi bo'lib – bu o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqilligini taraqqiy ettirishdan iborat. Oxirgi vazifasi sifatida ijodkorlik vazifasini qo'yadi va ijodkorlik – bu pedagogik jarayonlardagi ijodiy izlanish, eksperimentlarni o'tkazishni bilish, malakalarni umumlashtirish va o'zini har doim o'stirib borishni ko'rsatish mumkin. Kasb psixologiyasi o'qituvchi shaxsiga eng zaruriy va kerakli unsur sifatida qaraydi. Birgina o'qituvchi bolani tarbiyalab, uni hayotga yo'naltirish bilan cheklanmasdan, uning kasb tanlashiga ham yordam berib boradi. Bu faoliyatda o'qituvchi juda ko'p rol va vazifalarni bajarib boradi.

Shuni aytish joizki, o'qituvchining mehnati darrov natija bermaydi. Balki vaqt o'tishi bilan o'z natijalarini ko'rsatadi. Bu, albatta, kasb tanlashda, o'quvchining kelajakdagi yutuqlarida, o'z mehnati tufayli orttirgan obro' va hurmatlarida namoyon bo'ladi. Yuksak yutuqlarga erishgan olimlarni, siyosiy arboblarni, mashhur insonlarni va jamiki insonlarni yoshligida o'z mehrini berib ta'lim va tarbiya bergan inson aynan shu o'qituvchi





hisoblanadi. O'qituvchi bergan bilim va malakalar tufayli ular shu darajaga yetishgandirlar. Kasb tanlashda o'sib kelayotgan yoshlarga ta'lim va tarbiya beruvchi ustozlar borki, ularni o'rnini hech nima bilan almashtirib bo'lmaydi. Maktab davrida yoshlar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan kasblarni egallashga intilib boradilar. Bu davr uchun pedagogning o'rnini butunlay boshqacha bo'lib qoladi. U endi faqat tarbiya va ta'lim beruvchigina emas, balki o'quvchilarni ma'lum bir kasbga bo'lgan intilishini shakllantiruvchi pedagog-psixolog ham bo'lib qoladi. Pedagog bu davrda o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda bo'lib, uning qaysi fanlardan o'zlashtirishi yaxshiligini, qaysi fanlar uni qiziqtirishini va nima uchunligini, undagi boshqa fanlarga bo'lgan e'tiborini, qaysi fanlar uning uchun yetarli qiziqish uyg'otishini va shu kabilarni kuzatib boradi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). O'smirlarning kasb tanlash jarayonida qobiliyat ham eng muhim psixologik tushunchalardan biri sifatida qaraladi. "Qobiliyat – insonning individual salohiyati va imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat esa shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi"[4:31]. Shu o'rinda qobiliyatni malaka va ko'nikmadan ham farqlash muhimligini ta'kidlash lozim. Qobiliyat insonning ko'nikma va malakalarni egallashi jarayonida mukammallashadi. Qobiliyat deganda, shaxsning muayyan faoliyatni bajarishdagi mahoratini tushunish maqsadga muvofiq. Qobiliyat narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishda yaqqol namoyon bo'ladi. Shaxsning biror sohada yuritadigan faoliyatida muayyan muvaffaqiyatga erishishda qobiliyatning zaruriyligi tabiiy holdir. Shuni ta'kidlash lozimki, har qanday kasbda faoliyat yuritish jarayoni qobiliyatlar jamini talab qiladi. Shu tufayli "amaliy psixologiyaning bugungi kundagi eng muhim va dolzarb vazifalardan biri qobiliyat kurtaklarini ilk yoshlikdan aniqlash, intellekt darajasiga ko'ra shaxs qobiliyatlari yo'nalishlarini ochib berishdan iborat" [5:311-314]. Bunda nafaqat amaliyotchi psixologlar, balki pedagoglar ham muhim o'rin tutadi. Bolalikdan o'quvchining muayyan kasb yoki sohadagi faoliyat yuritishga bo'lgan qobiliyatning aniqlanishi va rivojlantirilishi pedagoglar faoliyati bilan bevosita bog'liq. Chunki pedagogning mutaxassis sifatida yetuklikka erishmaganligi ko'pdan ko'p o'quvchilar qobiliyatlarining yuzaga chiqmay qolishi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi mumkin bo'lgan kasbni egallamasligiga sabab bo'ladi. Ma'lum bo'ladiki, o'quvchi qobiliyatini erta aniqlash, uni taraqqiy ettirish ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi har bir xodimning eng avvalgi vazifalaridan bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 ч. – Москва: Изд. общ-ва любителей Российской словесности, 1863. – 627 с.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi





to'g'risida"gi Farmoni. – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y, 6-son.

3. Ўзбекистон Республикамиз Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон. ”2022-2026 йилларга мўлжаллаган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси“.фармони

4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси: 12 жилдлик, 11-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2005. – 608 б.

5. Bobojonova R. Kasb tanlashda qobiliyatning o'rni va kasb-hunarga yo'naltirish ishlari // Nazariy va amaliy fanlardagi ustuvor islohotlar va zamonaviy ta'limning innovatsion yo'nalishlari, Vol. 1(3), 2024. – P.311-314.

6. Шагазатова, Б. Х., & Кудратова, Н. А. (2016). ОЖИРЕНИЕ: ПУТЬ ОТ ИЗМЕНЕНИЯ ОБРАЗА ЖИЗНИ ДО МЕТАБОЛИЧЕСКОЙ ХИРУРГИИ. Knee Surgery, Sports Traumatology Arthroscopy, 24, 1741-1742.

7. Шагазатова, Б. Х., & Кудратова, Н. А. (2023). Бариатрическая хирургия в снижении индекса массы тела у лиц с ожирением: дис. Ўзбекистон, Самарканд.